

**Sultonmuratova Mashhura Quvonchbek qizi**

TATU Urganch filiali talabasi

E-mail: [sultonmuratovamashhura@gmail.com](mailto:sultonmuratovamashhura@gmail.com)

**Annotation.** O'zbekistonda ta'lilda, ijtimoiy sohalarda yangi g'oyalar, yangicha yondashuvlar asosida insonlar va obyektlarini istalgan joyda, istalgan xizmatni Internet yordamida amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada Vatanimiz tarixi haqida va Yangi O'zbekistonda dasturiy ilovalardan ijtimoiy sohada foydalanish bo'yicha qisqacha ma'lumot berilgan.

**Аннотация.** В Узбекистане новые идеи, новые подходы в образовании, социальной сфере позволяют людям и объектам осуществлять свою деятельность в любом месте, в любом сервисе с помощью интернета. В этой статье представлен краткий обзор истории нашей Родины и использования программных приложений в социальной сфере в новом Узбекистане.

**Annotation.** In Uzbekistan, on the basis of new ideas, new approaches in education, social spheres, it is possible to implement people and objects anywhere, with the help of the internet, any service. This article provides a brief overview of the history of our homeland and the use of software applications in the social sphere in New Uzbekistan.

**Kalit so'z:** Uchinchi Renessans, ta'lim, madaniyat, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, sun'iy intellekt.

**Ключевые слова:** Третье возрождение, образование, культура, биотехнологии, нанотехнологии, искусственный интеллект.

**Key words:** Third Renaissance, education, culture, biotechnology, nanotechnology, artificial intelligence.

**Kirish.** "Vatan" so'zining men uchun ahamiyati qay darajada? O'tmishimiz, bugunimiz va kelajagimizdan qanday saboq chiqaramiz? Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etishimiz uchun zamonamizning yosh qahramonlariga qanday imkoniyatlar yaratilgan?

"Vatan"! Shu bir so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam.

"Vatan"! Biz uchun kindik qonimiz to'kilgan, ilk tetapoya qadamlarimizga guvoh bo'lgan muqaddas maskan. Dardlarimizga darmon, quvonchimizga sherik bo'lgan mehr makoni ham Vatandir.

Ona yurtimiz O'zbekiston bugungi buyuklik darajasiga erishguncha ne-ne og'ir kunlarni, evrilishlar, yo'qotishlarni boshdan kechirgan. Shoir Muhammad Yusuf ta'biri bilan aytganda:

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,  
Aytsam, ado bo'lmas armonlaring bor.  
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,  
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Darhaqiqat, shoir kuyunib tasvirlaganidek, tarixda boshidan o'tkazgan urushlar natijasida halok bo'lgan ajdodlarimizni o'z bag'riga olgan muqaddas tuprog'imizga ozor bermasdan ohista qadam qo'yaylik.

Shoir ta'kidlaganidek:

Tarix-soqov kampir.  
Dardin aytmaydi,  
Aytolmas,  
Unutib ham bo'lmaydi aslo.

Janggohlarda Vatan uchun, ona yurt uchun mo'g'ullarga qarshi mardona kurashgan Jaloliddin Manguberdi, dushmanqa qarshi kurashib Vatan bayrog'ini qo'llarida ko'tarib, shahid bo'lgan Najmuddin Kubro, dunyoning yarmiga muborak qadami yetgan Amir Temur, dunyoning yetti mo'jizasidan biri sanalgan Tojmahalni bunyod ettirgan buyuk ajdodlarning avlodini ekanligimdan boshim osmonga yetadi.

Yurtimiz tarixiga nazar solar ekanmiz, shu Vatan farzandi ekanligimizdan faxrlanib, dunyoga bong ursa arzigulik jjihatlarni eslagim keladi. O'rxun-Enasoy yodgorligi, "Avesto" kitobi, Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Farobi, Ibn Sino, Beruniy, Zamashshariy, Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimiz merosi bugungacha dunyo olimlarini o'ziga jalb etib kelyapti.

Biroq jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shgan farzandlarga onalik qilgan Vatanimiz Sobiq Ittifoq davrida ayanchli kunlarni boshdan kechirdi. Yurtimiz tarixi soxtalashtirildi, ajdodlarimiz merosi toptaldi, xalqimiz qadri yerga urildi. Ma'naviy qadriyatlarimizning siyratini emas, suratini o'rgandik, xolos. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi adiblarimiz siyosiy qatag'onlikka uchradi. Xalqimizga beminnat ilm o'rnatgan Behbudiy bekafan ko'mildi.

Xalqimiz ozodlik uchun harakat qilar ekan, kimlarnidir yo'qotishga, ayrim qadrli narsalarimizni boy berishga to'g'ri keldi.

O'zbekiston muhtaram Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida mustaqillikka erishdi. Xalqimiz ko'kragiga erkinlik shabadasi tegdi. Biroq, bu mustaqillik ne-ne jonlar evaziga nasib etganini har lahzada eslashimiz joiz.

Bugungi tinch va osuda kunlarga yetguncha mustaqillikning ilk davrlarida diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" kabi zararli g'oyalar yoshlar ongiga salbiy ta'sir etib, kimlarnidir Vatanga qarshi qurol ko'tarishga undadi.

Professor I.Haqqulov e'tirof etganidek, "Sobiq Ittifoq davrida biz Xudo yo'q degan xudosizlik ovozlarini eshitgan bo'lsak, mustaqillikning ilk davrida xudo bor, degan xudosizlik ovozlarini eshitdik".

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida o‘zbek xalqi dinidan, ma’naviy qadriyatlaridan mahrum etilgani bois odamlar kim nimani din deb ko‘rsatsa, shunga erishdi. “Vahhobiylik”, “Al-Qoida”, “Tavba”, “Islom lashkarlari”, “Hizbut-tahrir” kabi ko‘plab vayronkor g‘oyalar tarafдорлари bu vaziyatdan foydalaniб qolishga harakat qilishdi.

Biroq davlatimizda bu “mafkuraviy boshliq” ning o‘rnini to‘ldirish maqsadida “Taraqqiyotning o‘zbek modeli” ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi.

Yaratganga beedad shukrlar bo‘lsinki, bugun yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Shunday osoyishta zamonda biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishimiz Vatanimiz oldidagi farzandlik burchimizdir.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekiston- maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi. Islohotlar ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, tashabbuskor yoshlarga tayaniladi. Bu esa o‘z navbatida, hozirdan yoshlarga yaratilayotgan katta imkoniyatlar, yangi texnologiyalar va sog‘lom ta’lim-tarbiya bilan bevosita bog‘liqdir.

Men o‘z mulohazalarimni Prezidentimizning quyidagi fikrlari bilan isbotlashni ma’qul ko‘rdim:

“Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliv ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari, deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz”.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi o‘zgarib, fan texnologiyalar mislsiz darajada rivojlanayotgan bugungi kunda har qanday xatardan ogoh bo‘lishimiz davr talabidir. Zero, 2020-yilda butun dunyoga xavf solgan koronavirus pandemiyasi, ayni davrda Sardoba suv omborining ofati tinchlik zamonda ancha yo‘qotishlarga sabab bo‘ldi. O‘zbek xalqi samimiyligini, mehr-oqibatini, har qanday qiyinchilikni birdamlik bilan yengishini butun dunyo oldida namoyon etdi. Biz – yoshlar ham shu og‘ir davrda xalqimizga baholi qudrat yordam berishga harakat qildik.

Kamtaronan yordamimiz muhtaram Prezidentimiz tomonidan alohida e’tirof etildi:

“El boshiga ish tushganda yoshlarimiz, kerak bo‘lsa, aziz jonlarini garovga qo‘yib, xalqimiz dardiga darmon bo‘ldilar. Dunyoqarashi keng, jonkuyar, ilg‘or fikrli farzandlarimiz ko‘pligini ko‘rib, nihoyatda quvondim”.

Davlat rahbari tomonidan berilgan bu yuksak ishonch bizga Vatan oldidagi burchimizni yana bir bor his qilishga turtki bo‘ldi.

Vaholanki, O‘zbekistonimizda biz uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Biz shu imkoniyatlardan oqilona foydalaniб, Yangi O‘zbekistonni qurishda astoydil harakat qilamiz.

Zero, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning olib borgan islohotlari, yurtimiz taraqqiyotiga katta burilish yasadi. Jumladan, 2017-2021-yillar davomida

Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar taraqqiyotning yangi davrini boshlab berdi. Jumladan, naqd pul bilan bog‘liq muammolar bartaraf etildi, turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, 90 ta mamlakat uchun vizasiz rejim joriy qilindi. Inson huquqlari kafolatlarning kuchaytirilishi, majburiy mehnat tugatildi. Kambag‘allikni qisqartirish va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida huquqiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.



### 1-rasm.Toshkent Yangi O‘zbekiston bog‘i

Shuningdek, oliy ta’limda o‘qishni istagan abiturientlar bir vaqtning o‘zida beshtagacha oliy ta’lim muassasasiga masofaviy tarzda hujjat topshirish imkoniyatining yaratilgani ayni quvonarli holdir.

Maqsad Uchinchi Renessans davrining poydevorini qo‘yishdir. Nihoyatda puxta o‘ylangan mazkur strategik g‘oya o‘zining ulug‘vorligi, milliy yuksalish uchun barcha jabhalarda qanday umumiyl maqsadni ko‘zlamog‘i zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, “Renessans” madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi bosqichga chiqib tez rivojlanishi.

Ma’lumki, tarix ajdodlarimiz tomonidan birinchi va ikkinchi renessans davrida yaratilgan o‘lmas qadriyatlarga guvoh bo‘lgan. Bugungi kunda Uchinchi Renessans davri, ya’ni, Yangi O‘zbekistonni biz o‘zimiz, o‘z qo‘llarimiz bilan bunyod etamiz.

Men ham shu yurt farzandi sifatida Yangi O‘zbekistonni qurishga o‘z hissamni qo‘shaman. Texnika yo‘nalishi talabasi sifatida davlatimizda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ayrim dasturiy ta’minotlar ustida izlanishlar olib boryapman.

Jumladan, yurtimizdag har bir insonning sog‘ligi ahamiyatga ega. Hozirda shifoxonalardagi tahsinga sazovor, ammo bemorlarning shifokor ko‘rigi uchun navbat kutib qolishlari jamiyatimizdag muammolardan biridir.

Men o‘z izlanishlarim natijasida bu muammoga yechim topish uchun “Online Queue” dasturini yaratishni taklif etaman. Biz dasturchilar jamoasi ushbu dastur ustida ish olib boryapmiz. Bu dastur foydalanuvchilari dasturga kirib yashash hududidagi shifoxonasidagi istalgan shifokoriga masofaviy navbatga yozilishi mumkin. Navbati

kelganida dastur avtomatik tarzda ogohlantiradi. Bu ham vaqt ni tejaydi, ham shifoxonalardagi noxush vaziyatlarni oldini oladi.

Ta'lrim, madaniyat, ilm-fan sohalarida jahon miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni, marralarni zabt etamiz. Yangi O'zbekistonda eng so'nggi biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, sun'iy intellekt yaratish maqsad va vazifalari ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Yangi O'zbekistonni bunyod etishda transport vositalari va yo'llar ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi yurtimizda bu sohada ayrim muammolar mavjud.

Biz o'z jamoamiz bilan ta'mirtalab holatdagi yo'llarni masofaviy aniqlashga va o'z vaqtida muammoni bartaraf etishga mo'ljallangan "Xavfsiz harakat" nomli dasturiy ta'minot ustida izlanishlar olib boryapmiz. Dasturiy ta'minotda ta'mirtalab holatdagi yo'llar "qizil", ta'mirlanish holatiga endi kelayotgan yo'llar "sariq", ta'mirlanib foydalanishga topshirilgan yo'llar "yashil" rangda avtomatik tarzda belgilanadi.

Darhaqiqat, bu sa'yi-harakatlarning barchasi yurtimiz ravnaqi "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasini amalga oshirish uchun qilinayotgan harakatlardan biridir.

Zotan, shu aziz Vatan barchamiz uchun onadek mehribon va qadrlidir. Muhammad Yusuf e'tirof etganidek:

Qo'yimdag'i iftixorim,  
Bo'yimdag'i tumorim,  
O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim!

**Xulosa.** Vatanni shunchaki sevish emas, uni ardoqlash xalq dardiga darmon bo'lish, lozim bo'lsa, Vatan uchun fido bo'lish joiz. Fransuz adibi Viktor Gyugo aytganidek, "Odamning ulug'ligi, uning bo'y-basti bilan o'lchanmaganidek, xalqning buyukligi uning sonining ko'pligi bilan o'lchanmaydi".

Mening nazarimda, Vatanning ulug'ligi har birimizning sadoqatimiz, mehrimiz bilan o'lchanadi. Men Vatanimni sevaman. Yangi O'zbekistonni qurishda bilimim, g'oyalarim va amaliy harakatlarim bilan astoydil hissa qo'shaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Shavkat Mirziyoyev.** Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari (4)
2. **Shavkat Mirziyoyev.** Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir
3. **M.B.Tursunov.** Ilm-fan va innovatsion rivojlanish